

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA
UMUMIY O‘RTA TA‘LIM TIZIMI
2020/2021- o‘quv yili boshiga**



2020/2021- o'quv yili boshiga Qoraqalpog'iston Respublikasi jami umumta'lim muassasalari soni 733 tani tashkil etib, ulardan 508 tasi (69,3 %) qishloq joylarda, 225 tasi (30,7 %) shaharlarda joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi umumta'lim muassasalarida 354,0 ming nafar o'quvchilar ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 49,1 % i qishloq joylardagi umumta'lim muassasalarida, 50,9 % i shahar joylarda ta'lim oladigan o'quvchilarni tashkil etadi.



Umumta'lim muassasalarida sinf guruhlari bo'yicha o'quvchilar soni

(2020/2021- o'quv yili boshiga, ming kishi)



Umumta'lim muassasalari bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasadir.

Umumiy o'rta ta'lim, boshlan-g'ich ta'lim (I - IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar) hamda o'rta ta'lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida faoliyat yuritadi.



Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlik


	Muassasalar soni, birlik	O'quvchilar soni,	O'qituvchilar soni,
Qoraqalpog'iston Respublikasi	733	353968	38616
Nukus shahar tumanlar:	58	61151	6489
Amudaryo	87	38518	4267
Beruniy	72	37902	3434
Bo'zatov	15	3226	539
Qorao'zak	33	8718	1323
Kegeyli	38	13063	1921
Qo'ng'iro't	49	25331	2573
Qonliko'l	23	8510	1136
Mo'ynoq	17	5245	755
Nukus	31	10737	1485
Taxiatosh	22	12818	1259
Taxtako'pir	23	7170	1020
To'rtko'l	67	40672	3076
Xo'jayli	44	22807	2430
Chimboy	48	20048	2570
Shumanoy	33	7696	1214
Ellikqal'a	73	30356	3125

Umumta'lim muassasalari soni, birlik
(o'quv yili boshiga)



Qoraqalpog'iston Respublikasida 2020/2021- o'quv yili boshida jami umumta'lim muassasalari soni 733 tani tashkil etdi va 2016/2017- yilning mos davriga nisbatan 28 taga ko'payib, 4,0 % ga oshgan.

Umumta'lim muassasalari, o'quvchilar soni, ming kishi (o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 354,0 ming nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2016/2017- o'quv yili boshida 83,1 ming nafarga (30,7 % ga), 2017/2018- o'quv yili boshida 59,3 ming nafarga (20,1 % ga), 2018/2019- o'quv yili boshida 27,5 ming nafarga (8,4 % ga), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,8 ming nafarga (2,5 % ga) oshganligi kuzatildi.


Umumta'lim muassasalari, o'qituvchilar soni, ming kishi
(o'quv yili boshiga,)




Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar bu- o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslardir. 2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 37,7 ming nafar o'qituvchi (o'rindoshlarsiz) faoliyat olib bormoqda va 2016/2017- o'quv yili boshida 29,8 ming nafarga (26,5 % ga), oshganligi kuzatildi.



Umumta'lim muassasalarini turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlik



 Qoraqalpog'iston Respublikasi umumta'lim muassasalarini uch turga bo'linadi: boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar hisoblanadi. 2020/2021- o'quv yili boshiga umumiy umumta'lim muassasalarining 726 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablari, 3 tasi boshlang'ich maktablar va 4 tasi boshqa muassasalar tarkibiga kiradi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 352,8 ming nafar, boshlang'ich ta'lim muassasalarida 0,2 ming nafar va boshqa muassasalarda 0,9 ming nafar o'quvchilar tahsil olmoqda. 



**Umumta'lim muassasalarini hududlar bo'yicha
taqsimlanishi, birlik
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**



	Boshlang'ich	Umumiy o'rta	Boshqalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3	726	4
Nukus shahar	-	56	2
tumanlar:			
Amudaryo	3	84	-
Beruniy	-	72	-
Bo'zatov	-	15	-
Qorao'zak	-	33	-
Kegeyli	-	38	-
Qo'ng'iro't	-	49	-
Qonliko'l	-	23	-
Mo'ynoq	-	17	-
Nukus	-	31	-
Taxiatosh	-	22	-
Taxtako'pir	-	23	-
To'rtko'l	-	66	1
Xo'jayli	-	43	1
Chimboy	-	48	-
Shumanoy	-	33	-
Ellikqal'a	-	73	-



Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, ming kishi ¹⁾


O'quvchilar soni jami	shundan :											
	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	353,0	36,9	35,6	34,0	35,6	36,4	35,4	33,1	29,0	27,5	25,1	24,4
Nukus shahar tumanlar:	60,7	6,4	6,1	6,0	6,3	6,3	5,7	5,4	5,0	4,7	4,7	3,9
Amudaryo	38,5	3,6	3,6	3,3	3,4	3,8	4,0	4,1	3,5	3,3	3,0	3,0
Beruniy	37,9	3,8	3,9	3,9	3,9	3,7	3,7	3,8	3,2	2,9	2,6	2,6
Bo'zatov	3,2	0,4	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,2	0,2
Qorao'zak	8,7	0,9	0,9	0,9	1,0	0,9	0,9	0,8	0,7	0,7	0,7	0,5
Kegeyli	13,1	1,4	1,4	1,3	1,3	1,3	1,3	1,2	1,1	0,9	1,1	0,9
Qo'ng'iro't	25,3	2,7	2,6	2,5	2,7	2,6	2,3	2,2	2,0	2,1	1,7	1,9
Qonli'ko'l	8,5	1,0	0,8	0,8	0,9	1,0	0,8	0,8	0,7	0,6	0,4	0,6
Mo'ynoq	5,2	0,6	0,5	0,5	0,6	0,6	0,5	0,5	0,4	0,4	0,3	0,4
Nukus	10,7	1,1	1,1	1,1	1,1	1,1	1,1	1,0	0,9	0,8	0,6	0,6
Taxiatosh	12,8	1,3	1,3	1,4	1,4	1,3	1,2	1,2	1,1	1,0	0,8	0,9
Taxtako'pir	7,2	0,7	0,8	0,8	0,7	0,7	0,7	0,6	0,5	0,5	0,6	0,5
To'rtko'l	40,5	4,4	3,9	3,7	3,6	4,5	4,6	3,9	3,4	3,1	2,6	2,9
Xo'jayli	22,5	2,4	2,2	2,3	2,4	2,4	2,2	2,2	1,7	1,9	1,5	1,4
Chimboy	20,1	2,0	2,1	1,9	2,1	2,2	2,0	1,8	1,6	1,6	1,5	1,2
Shumanoy	7,7	0,9	0,9	0,7	0,8	0,8	0,7	0,7	0,6	0,6	0,5	0,5
Ellikqal'a	30,4	3,4	3,1	2,9	3,1	2,9	3,2	2,6	2,3	2,1	2,3	2,4



2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining birinchi sinfga qabul qilingan o'quvchilari soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahri, To'rtko'l va Beruniy tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Bo'zatov va Taxtako'pir tumanlarida kuzatildi.

¹⁾ Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi²⁾



2020/2021- o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta'lim muassasalaridan, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 138 ta (18,9 %), ikki smenada 588 ta (80,7%), uch smenada 3 ta (0,4 %)ni tashkil etdi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 206,5 ming kishi, (58,5 % i) ikki smenada 145,6 ming kishi, (41,3 % i), uch smenada 0,9 ming kishi (0,2 % i) tahsil olmoqda.

²⁾Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz



Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi, % da

90,9 %

Oliy ma'lumotli

9,1 %

O'rta maxsus ma'lumotli

2020/2021- o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar soni 37,7 ming nafarni tashkil etib, ulardan 53,4 % i qishloq maktablarida, 46,6 % i shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasida bitta o'qituvchiga o'rtacha 9 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.



O'qituvchilarni ta'lim darajasiga ko'ra tumanlar bo'yicha taqsimoti³⁾

Oliy ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da		O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da
98,1	Nukus shahar	1,9
91,0	Amudaryo	9,0
85,8	Beruniy	14,2
87,2	Bo'zatov	12,8
92,9	Qorao'zak	7,1
89,2	Kegeyli	10,8
90,3	Qo'ng'iro't	9,7
95,1	Qonliko'l	4,9
89,3	Mo'ynoq	10,7
94,2	Nukus	5,8
90,4	Taxiatosh	9,6
93,9	Taxtako'pir	6,1
84,6	To'rtko'l	15,4
92,0	Xo'jayli	8,0
89,3	Chimboy	10,7
93,5	Shumanoy	6,5
85,1	Ellikqal'a	14,9


³⁾ o'rindoshlarsiz



Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi hududlar kesimida, birlik


	Bir smenada	Ikki smenada	Uch smenada
Qoraqalpog'iston Respublikasi	138	588	3
Nukus shahar	5	48	3
tumanlar:			
Amudaryo	15	72	-
Beruniy	17	55	-
Bo'zatov	7	8	-
Qorao'zak	6	27	-
Kegeyli	7	31	-
Qo'ng'iro't	4	45	-
Qonliko'l	16	7	-
Mo'ynoq	1	16	-
Nukus	10	21	-
Taxiatosh	2	20	-
Taxtako'pir	1	22	-
To'rtko'l	11	55	-
Xo'jayli	16	27	-
Chimboy	6	42	-
Shumanoy	9	24	-
Ellikqal'a	5	68	-

Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, birlikda




 Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich To'rtko'l tumanida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Bo'zatov va Shumanoy esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 6 nafardan o'quvchi to'g'ri kelgan.





Umumta'lim muassasalarida bitiruvchilar soni, ming nafar



2020- yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining umumta'lim muassasalarida 11-sinfni 25,2 ming nafar o'quvchi tamomlagan bo'lib, tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (3,9 ming nafar o'quvchi) to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich esa Bo'zator tumanida (ya'ni 0,2 ming nafar o'quvchi) to'g'ri keldi. Umumta'lim muassasalarida 9-sinfni 27,3 ming nafar o'quvchi tamomlagan. Eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (4,7 ming nafar o'quvchi) va Amudaryo tumanida (3,0 ming nafar o'quvchi) to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich Bo'zator (0,3 ming nafar o'quvchi) va Mo'ynoq tumanida (0,4 ming nafar o'quvchi) dan to'g'ri keldi.

**Umumta'lim muassasalari va ulardagi o'quvchilarni
o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi,
muassasalar soni, birlik**

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz)



375

Qoraqalpoq



348

O'zbek



165

Qozoq



78

Rus



42

Turkman



**Umumta'lim muassasalari va ulardagi o'quvchilarni
o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi,
(o'quvchilar soni, ming kishi)**

Qoraqalpoq

126,3



O'zbek

152,3



Rus

42,6




Qozoq

21,5



Turkman


10,3



(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz)

Umumiy o'rta ta'lim tizimida turli beshta tilda bilim olish imkoniyatlari taqdim etiladi: qoraqalpoq, o'zbek, qozoq, rus va turkman tillarida va bu turli aholi guruhlarini ta'limga ega bo'lish imkoniyati bilan ta'minlaydi. 2020/2021- o'quv yili boshiga qoraqalpoq tilida ta'lim beradigan umumta'lim muassasalari 733 tani tashkil etib, ulardan 236 tasi ta'limni faqat qoraqalpoq tilida olib boradi.


**Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jinsi
bo'yicha taqsimlanishi, % da
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**



2020/2021- o'quv yili boshiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha jami umumta'lim muassasalarida 353,0 ming nafar o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 180,2 ming nafari (51,1 %) o'g'il bolalar, 172,8 ming nafari (48,9 %) qiz bolalarni tashkil etadi.



Umumta'lim muassasalarida o'rtacha bitta sinfda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni (2020/2021- o'quv yili boshiga, kishi)



Qoraqalpog'iston Respublikasi umumta'lim muassasalarida o'quvchilar qamrovi kengayib bormoqda. 2020/2021- o'quv yili boshiga Qoraqalpog'iston Respublikasi umumta'lim muassasalarida bitta sinfga o'rtacha 22 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahri va To'rtko'l tumanida bo'lib 25 nafar o'quvchini, eng past ko'rsatkich Bo'zatov tuamnida 15, Shumanoy tumanida 17 nafar o'quvchini tashkil etgan.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Umumta'lim muassasalari – bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalar. **Umumta'lim muassasasi** uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumta'lim muassasasining asosiy maqsadi – o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish, ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash, ularni o'zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

Umumta'lim muassasalari bitiruvchilariga – umumta'lim muassasalarida o'qishni to'liq bitqazgan va o'rta ma'lumot uchun shahodatnoma olgan shaxslar soni kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
tel.: (61) 222-79-83